

YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKILLANTIRISH OMILLARI

Madraximov Atabek Abduraximovich

Urganch davlat pedagogika instituti, Filologiya va tarix fakulteti Milliy g'oya va falsafa kafedrası
o'qituvchi-stajyori

Anontatsiya: Ushbu maqolada yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish omillari tahlil qilinadi. Ekologik madaniyat insonlarning tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatini, uning muhofazasiga bo'lgan ehtiyojini va atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan harakatlarini o'z ichiga oladi. Maqola ta'lim va tarbiya, oilaviy ta'sir, jamiyat va madaniyat, axborot texnologiyalari, innovatsion loyihalar va ekologik aktivizm kabi omillarni ko'rib chiqadi. Yoshlarni ekologik madaniyatga jalb etish jarayoni ko'p qirrali bo'lib, kelajak avlodning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, yoshlar, ta'lim, oila, jamiyat, axborot texnologiyalari, innovatsion loyihalar, ekologik aktivizm, tabiatni muhofaza qilish, ong.

Аннотация: В статье анализируются факторы формирования экологической культуры молодёжи. Экологическая культура включает в себя ответственное отношение людей к природе, потребность в её защите и действиях, направленных на улучшение окружающей среды. В статье рассматриваются такие факторы, как образование и воспитание, влияние семьи, общества и культуры, информационные технологии, инновационные проекты и экологический активизм. Процесс вовлечения молодёжи в экологическую культуру многогранен и имеет большое значение для устойчивого развития будущего поколения.

Ключевые слова: экологическая культура, молодёжь, образование, семья, общество, информационные технологии, инновационные проекты, экологический активизм, охрана природы, сознание.

Abstract: This article analyzes the factors of formation of ecological culture of youth. Ecological culture includes the responsible attitude of people towards nature, the need for its protection and actions aimed at improving the environment. The article considers such factors as education and upbringing, family influence, society and culture, information technologies, innovative projects and ecological activism. The process of involving young people in ecological culture is multifaceted and is of great importance for the sustainable development of the future generation.

Keywords: ecological culture, youth, education, family, society, information technologies, innovative projects, ecological activism, nature protection, consciousness.

XXI asrda insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bu -ekologik muvozanatning buzilishi va atrof-muhitning tobora yomonlashib borayotganidir. Global miqyosda iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning kamayishi, suv va havo ifloslanishi kabi ekologik muammolar nafaqat tabiat, balki inson salomatligi va iqtisodiy rivojlanishga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, ekologik muammolarni bartaraf etishda faqat

texnologik yechimlar emas, balki ijtimoiy ong, xususan, ekologik madaniyatni shakllantirish muhim omil hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uning ekologik barqarorligiga bog'liqdir. Ekologiya masalalari naqadar dolzarb va hayot-mamot masalasi ekanligini bugun ahli bashar tugal anglab yetmoqda. Boshqacha aytganda pandemiya kabi ofatlar bu borada insoniyat ko'zini yanada kattaroq ochdi, deb aytishimiz mumkin. Sir emaski, tabiiy talofatlar, ofatlardan ko'ra insoniy ofatlardan bugun tabiat tabiiyligi jar yoqqasiga olib kelib qo'ydi. Buni o'zida aqli, hushi bor odam zamin sayyorasini qaysi chekkasida istiqomat qilmasin anglash qiyin emas. Albatta, muammoga turlicha yechimlar bugun dunyoda ko'p. Ammo, yechimlar boshida avvalo, ekologik madaniyat, ma'naviy mas'uliyat, ta'limtarbiya va amal birligini inobatga olish oqilonalikdandir.

Zero, odamni tabiatiga munosabatlaridagi yondoshuvlari tubdan o'zgarmasa, chuqur ilmiy-ma'rifiy asoslarga ega bo'lmasa – olamdagi ekologik vaziyat o'zgarmas. Shu boisdan, yoshlarda ekologik qadriyatlarni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi usul va vositalari ta'sirini oshirish tamoyillariga e'tibor qaratish muhim ma'no va hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Toza tabiiy muhitni asrash kerak deganimiz bilan u asralib qolmaydi. Uning asrash uchun insonlar qalbida va ayniqsa ertangi avlod qalbida tabiatga nisbatan mehr-ma'rifatini uyg'otmoq darkor. Bu avvalo, yoshlarda ekologik qadriyatlarni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi usul va vositalarini qaydarajada mukammaligiga, uning ta'siri samaradorligini oqilona ko'lam darajasiga hamda mavjud jamiyatning ekologik madaniy ongi va tafakkur darajasiga bog'liqdir.

Ekologik madaniyat — bu insonning tabiatga ongli munosabati, ekologik muammolarni anglay olish va ular bilan kurashish ko'nikmalariga ega bo'lishi, kundalik hayotda ekologik qadriyatlar asosida yashash odatlaridir. Ushbu madaniyatni yosh avlod ongiga chuqur singdirish barqaror rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Zero, aynan yoshlar — jamiyatning eng faol va o'zgaruvchan qatlami bo'lib, kelajakda davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy kuch hisoblanadi.

Ekologik madaniyat mazmunini talqin qilishda muayyan qoida keltirmay uni quyidagi o'zaro bog'langan komponentlar yig'indisi sifatida qarash maqsadga muvofiq: - kognitiv (ekologik ahamiyatga ega bilim); - aksiologik (ekologik qadriyatlar, baholashlar, munosabatlar, tajribalar, "hissiy rezonans"); - me'yoriy (axloqiy va ekologik imperativ, axloqiy me'yorlar, qoidalar, taqiqlar, ekologik an'analar); - ijodiy va faol (ijodiy, proyektiv, ekologik jihatdan oqlangan faoliyat tajribasi); - xulq-atvor (tabiatga nisbatan tabiiy harakatlar, u bilan munosabatlarda hamkorlik); - tafakkurning ekologik uslubi (tabiiy va ijtimoiy-madaniy jarayonlarni yaxlitlik pozitsiyasidan ko'rib chiqish, u bilan sheriklik asosida inson va tabiatning yonmayon mavjudligini tan olish, tirik tabiatning qadr-qimmati, u bilan insonning birligi, tabiatning sub'ektivligi va boshqalar).

Ekologik madaniyatning aniqlangan tarkibiy qismlari diagnostika vositalari bo'lib, ko'rsatilgan komponentlar asosida uning shakllanishi mezonlarini (yuqori, o'rta, past) aniqlash imkonini beradi. Ekologik madaniyatga ega bo'lgan shaxs nafaqat tashqi dunyo (tabiat, jamiyat), balki uning ichki dunyosi bilan ham uyg'unlikka erishish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Ekologik madaniyatning shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi: 1. Ta'lim. Ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik ta'lim asosiy o'rin tutadi. Bu odamlarga atrof-muhitni muhofaza qilish muhimligini tushunishga yordam beradi va ularni himoya qilish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni o'rgatadi. 2. Tarbiya. Ota-onalar va boshqa muhim kattalar bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishga ta'sir qilishi mumkin. Ular ularga atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq qadriyatlar va xatti-harakatlar normalarini etkazishlari mumkin.

3. Tajriba. Tabiat bilan o'zaro munosabatlarning shaxsiy tajribasi ham ekologik madaniyatning shakllanishiga ta'sir qiladi. Tabiatda ko'p vaqt o'tkazadigan odamlar ko'pincha uni asrash haqida ko'proq ongli bo'lishadi.

4. An'analar va qadriyatlar. Madaniy an'analar va qadriyatlar odamlarning atrof-muhitga bo'lgan munosabatiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, ba'zi madaniyatlar tabiat bilan chuqur aloqada bo'lib, uni muqaddas deb bilishadi.

5. OAV. Jamoatchilik fikri va qadriyatlarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutadi. Ular atrof-muhit muammolari haqida ma'lumot tarqatishi va odamlarni uni himoya qilish uchun harakat qilishga undashi mumkin.

6. Qonunchilik. Atrof-muhitni muhofaza qilishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari ham ekologik madaniyatni shakllantirishga sezilarli ta'sir qiladi. Chunki, ular tabiatni muhofaza qilish uchun odamlar amal qilishi kerak bo'lgan qoidalar va standartlarni belgilashlari mumkin.

Ekologik madaniyatni yoshlar ongida shakllantirish masalasi bugungi kunda nafaqat ta'lim tizimi, balki kengroq ijtimoiy, madaniy va siyosiy kontekstda ham muhim o'rin egallamoqda. Ilmiy adabiyotlarda ekologik madaniyat tushunchasi bir necha yondashuvlar asosida izohlanadi. "Ekologik madaniyat bu insonning atrof-muhitga nisbatan ongli, ijtimoiy mas'uliyatli va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan munosabatidir" [1]. Muallif ekologik madaniyatni talabalarda shakllantirish uchun uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida ekologik bilimlarning izchil berilishini ta'kidlaydi.

Ekologik madaniyatni yoshlar ongiga singdirishda, ayniqsa, ularning ekologik savodxonligini oshirish muhim o'rin tutadi. "Ekologik savodxonlik nafaqat nazariy bilimlar bilan cheklanmay, balki amaliy faoliyat, ijtimoiy tashabbuslar va barqaror turmush tarzini shakllantirish orqali mustahkamlanadi" [3]. Ularning fikricha, ekologik salomatlik va madaniyat bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, ekologik stress inson salomatligi va madaniyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Yana bir muhim manbada ekologik madaniyat va ongni rivojlantirishda xavfsizlik tizimlari va ekologik xatarlarning baholanishi yoritiladi: "Jamiyatda ekologik xavf va xavfsizlikni boshqarish faqat texnik vositalar bilan emas, balki aholining ekologik ongini yuksaltirish orqali ham amalga oshiriladi" [4]. Ushbu yondashuv ekologik madaniyatni xavfsizlik paradigmasi bilan bog'laydi. Plumwood esa ekologik madaniyatga g'arb falsafasining tanqidi orqali yondashadi: "Tabiatni insondan ajratilgan, passiv obyekt sifatida ko'rish – ekologik inqirozning asosiy sabablaridan biridir" [2]. U ekologik tafakkurda inson markazli qarashlar o'rniga muvozanatli, o'zaro bog'liqlik asosidagi yondashuvni taklif qiladi.

Shuningdek, ekologik ongni shakllantirishda iqtisodiy omillar ham ahamiyatga ega. "Atrof-muhitni asrash bilan bog'liq faoliyatlar iqtisodiy rag'batlar bilan uyg'unlashgandagina keng ijtimoiy qamrovga ega bo'ladi" [5]. Bu iqtibos orqali ekologik madaniyatni rivojlantirishda iqtisodiy mexanizmlarning o'zni ta'kidlanadi. Shu tarzda, ekologik madaniyatga oid adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, bu masala ko'p qirrali bo'lib, u ta'lim, madaniyat, xavfsizlik, sog'liqni saqlash va iqtisodiy siyosat bilan chambarchas bog'liqdir. Bu esa uni yoshlar ongiga chuqur singdirish uchun kompleks yondashuv zarurligini anglatadi. Zamonaviy dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish uchun har bir inson o'zining ekologik madaniyatini yuksaltirishga intilishi, tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlarda faol ishtirok etishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Ekologik madaniyat – bu barchamizda ongli ravishda shakllanib boradigan tuyg'u va biz uni hayotimiz davomida amaliy harakatlarimiz bilan rivojlantirib borishimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish, rivojlantirish innovatsion usul va vositalarga taqozolangandir. Bu qonuniyatlarini inobatga olmaslik ekologik tahdidlarni yanada ortishiga sabab bo'ladi. Innovatsiyalar jamiyat kishilarini va yoshlarni halim-hazimlikka, oqilonalikka, kamhariylikka, samaradorlikka, saramjon-sarishtalikka, ekologik fahm-farosatiga, tozalik va ozodalikka, tabiat boyligiga boylik qo'shishga, uni gullab-yashnatish yo'lida himmatu-shijoatga, g'ayrat-tashabbusga, hikmatu hidoyatga chorlaydi.

Yoshlarni ekoinnovatsion fikrlash maydonlarini kengaytirish, sog'lom ilmiy ekologik g'oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalash masalalari va mazkur qism bo'yicha quyidagilarni taklif sifatida kiritishimiz mumkin; birinchidan, bu boradagi tarbiya mavsumiy xarakterga ega bo'lmasligi lozim; ikkinchidan, yoshlar qalbi va ongini ekologik madaniyati bilan boyitadigan manbalar mavjud ekologik voqelikdan ortda qolmasligi kerak; uchinchidan, yoshlar ekologik ong va madaniyatini oshirishga sezilarli ta'sir etuvchi omillar tizimini yanada rag'batlantirishni oshirib borish darkor; to'rtinchidan, yoshlarni innovatsion ekologik fikrlashga turtki beradigan ilmiy asarlarni ko'paytirishga va ularni elektron versiyalarini ijtimoiy tarmoqlarda joylash muhimdir; beshinchidan, yoshlar o'rtasida ekobilimdonlik kechalarini tashkil etish maqsadga muvofiq va boshqalar.

Yoshlar ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni ko'p qirrali bo'lib, ta'lim, oilaviy ta'sir, jamiyat, axborot texnologiyalari, innovatsion loyihalar va aktivizm kabi omillarni o'z ichiga oladi.

Ushbu omillar birgalikda yoshlarni atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli va ehtiyotkor munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Kelajak avlodning ekologik madaniyati esa butun insoniyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun bu jarayonni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish barchamizning vazifamizdir.

Bizningcha, yuqoridagilarni amalga oshirish yoshlarda sog'lom turmush tarziga oid ekobilimdonlik madaniyatni rivojlantiradi, ona tabiatga, uning boyliklariga, cheksiz sahovatiga muhabbat tuyg'ularini mustahkamlaydi va tabiat boyliklari ustiga boylik qo'shish ishtiyoqini oshiradi hamda bu borada mustaqil va ratsional ilmiy-ma'rifiy yondoshishlariga muhim omil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдумаликов А. А. Роль системы непрерывного образования в формировании экологической культуры личности // International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research. – 2022. – Т. 11, № 11. – С. 5–8.
2. Plumwood V. Environmental Culture: The Ecological Crisis of Reason. – New York: Routledge, 2002. – 240 p.
3. Rapport D. J., Maffi L. Eco-cultural health, global health, and sustainability // Ecological Research. – 2011. – Vol. 26. – P. 1039–1049. – DOI: 10.1007/s11284-010-0703-5.
4. Ефанова Е. В., Маклачков А. В. Экологические риски в системе обеспечения безопасности // Journal of Environmental Management and Tourism. – 2015. – Т. 6, № 1(11). – С. 61–69.
5. Bimonte S. Information and Environmental Awareness: Evidence from the Municipalities of the Province of Siena, Italy // Ecological Economics. – 2008. – Vol. 65, Issue 3. – P. 636– 645. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.ecolecon.2007.08.016>.
6. A.X. Hamzayev. Ekologik ta'lim va tarbiya tushunchalarini shakllantirish tamoyillari. Ekologik madaniyat: muammo va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallar to'plami. 2025 yil. Buxoro (12may). 5-8 b.
7. S.G'. Siddiqova. Yashil tarbiyadan yashil ixtirolargacha: yashil taraqqiyotda ayollarning o'rni. EKOLOGIK MADANIYAT: MUAMMO VA YECHIMLAR mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallar to'plami. 2025 yil. Buxoro (12may). 8-12 b.
8. Jalilov Jamshid Azamatovich. Ekologik madaniyatni yoshlar ongida singdirish. International scientific and practical conference "Environmental protection and scientific foundations of the "green" economy", APRIL 4-5, 2025